



FRANSUZ, O'ZBEK VA RUS TILI MAQOLLARIDA MENTALITET VA MILLIYLIK

Ayrapetyan Irina¹

¹ TDYU qoshidagi akademik litsey
katta o'qituvchisi

Senior lecturer, Academic Lyceum under TSUL

e-mail: ayrapetyanirina867@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813070>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-Dekabr 2021

Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

xalq maqollari, milliylik, mentalitet, ibora, realiya, solishtirish va qiyoslash, talqin, leksik o'rin almashtirish

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola uch til – o'zbek, fransuz hamda rus tillaridagi maqollar hamda ularda aks etadigan mentalitet va milliylikning talqiniga bag'ishlangan. Maqolada uch tildagi xalq maollari tarjima jarayonida qiyinchiliklar va solishtirishning o'ziga xos afzalliklari, usullari ko'rsatilgan. Bundan tashqari maqollar tarjimasida yoki solishtirishda nimalarga katta urg'u berishi kerakli hamda tilshunos olimlarning fikrlari ham ta'kidlab o'tilgan.

Mazkur maqolaning yozilishidan maqsad – turli xalqlarning uzoq yillardavomida hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda yaratilgan maqollarini qiyosiy tahlil qilish hamda filologik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga xalq maqollarining tarjimasini va qiyosiy tahlilini to'g'ri talqin qilishni o'rgatish.

KIRISH

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'z milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, madaniyatimizga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Lekin shu bilan birga, zamon bilan hamnafas bo'lish, rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tirilishni ham unutmamiz yo'q. Zero, "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir"[1,3]. Ular

bilan bir qatorda rivojlanish uchun dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lib turishimiz lozimligi isbot talab qilmaydi. Bunda esa, albatta, chet tili muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tilini o'rganish dunyoqarashimizni yanada kengaytirsam, uni o'zbek tili bilan qiyoslash esa tilshunosligimiz taraqqiyoti uchun muhimdir. Shu sababdan quyida fransuz, o'zbek va rus tili maqollarida mentalitet va milliy kolorit masalalariga to'xtalib o'tsak.

OBJEKT VA METOD

Ma'lumki, maqollar til fondining qimmatli materiali hisoblanadi. Ular xalq



ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, “maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda ortirgan haqiqati” [2,171]. Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Sh sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

“Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarash” mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi” [3, 59]. Tilshunos olimlardan biri V.V. Kolesov “mentalitet” va “dunyo tasviri” tushunchalari orasiga tenglik belgisini qo'yadi va uni “intelektual, ma'naviy va irodaviy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganona tili doirasida olamni anglash”, deb aytib o'tadi [4,14].

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir” [5, 348]. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq.

NATIJA

Fransuz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri xususida so'z yuritmay iloji yo'q. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari mag'rur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham ko'rinadi: *Mieux vaut régner en enfer que servir au paradis* (“jannatda xizmat qilgandan ko'ra do'zaxda hukmronlik qilgan afzal”).

Un déni civil vaut mieux qu'une subvention grossière (“qo'pol taqdirlanishdan ko'ra hurmat bilan rad etilgan yaxshi”).

Shuningdek, fransuz larga xos yana bir jihat – bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga bo'lgan mehri ustunroq turishini maqollarda “bola” obrazidan ko'ra “it”, ayniqsa, “mushuk” obrazlari ko'proq qo'llanilishida kuzatamiz. Masalan:

le chien ne mange pas de chien (“qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi”).

les chiens qui aboient mordent rarement (“ko'p vovullagan it tishlamaydi”).

Quand le chat est absent, les souris joueront (“mushuk yo'q bo'lsa sichqon bayram qiladi”).

un chat avec des gants n'attrape pas de souris (“qo'lqopli mushuk sichqon tuta olmaydi”).

Milliy madaniyatda din ham katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek va rus maqollariga qaraganda bu yaqqolroq ko'rinadi, ya'ni ularda jannat, do'zax va shayton tasvirlari katta o'rin tutadi:

L'enfer est pavé de bonnes intentions (“do'zax ham ezgu niyatlar asosida yaratilgan”).

Le diable n'est pas si noir qu'il est peint (“shayton tasvirlaganlaridek qop – qora emas”, ya'ni “qo'rqqanga qo'sh ko'rinar”).

Celui qui soupe avec le diable devrait avoir une longue cuillère (“shayton bilan sho'rva ichmoqch bo'lgan odamga uzun qoshiq



darkor”, ya’ni “yomon bilan hamtovoq bo’lsang, o’zingdan o’pkala”).

O’zbek tili maqollaridagi mentalitet tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, xalqimiz qonidagi mehmondo’stlik to’g’risida eslamay ilojimiz yo’q. Maqollarimizda mehmonga bo’lgan hurmat, bag’rikenglik yaqqol ko’rinib turadi. Misol uchun:

Mehmon – atoyi xudo.

Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

Shu bilan bir qatorda, o’zbeklar bolajon xalq bo’lib, ona va bolaga bo’lgan e’tibor ahamiyatga molik:

Ona bilan bola – gul bilan lola

Bolali uy – bozor, bolasiz uy mozor.

Bolamning bolasi – qandin o’rik donasi.

Yana shuni ham e’tirof etish kerakki, “qaynona” va “kelin” obrazlari faqatgina o’zbek maqollariga xosdir. Masalan:

Kelin bo’ldim — qaynonamga yoqmadim, qaynona bo’ldim — kelinimga yoqmadim.

Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.

Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o’zbek maqollarida uchraydi desak yanglishmaymiz. Isbot uchun:

Andishaning oti qo’rqoq.

Sharmsizlik – sharmandalik nishoni.

O’zbek xalqi nonni juda e’zozlaydi va buni maqollarda ham kuzatamiz:

Non mo’lligi — el to’qligi.

Nonga hurmat – elga hurmat.

Boshqa xalqlar singari rus millati ham o’ziga xos xarakterga ega. Shuning uchun, maqollarida milliy bo’yoqdorlik boshqa xalq maqollaridan farq qiladi. Ularda, avvalo, rus xalqi obrazini ko’rish mumkin:

Русский что увидит, то и сделает (“rus nimani ko’rsa, shuni qiladi”).

Русское «ура» грянет — врагу жарко станет (“ruscha “ura” yangrasa, dushmandan ter chiqadi”).

Shuningdek, Rossiya shaharlari obrazi ham ko’p uchraydi. Masalan:

Питер создан миллионами, а Москва – веками (“Piter shahri millionlab odamlar tomonidan barpo etilgan bo’lsa, Moskvani esa – asrlar”).

Кто в Москве побывал, тот всю Русь повидал (“Moskvada bo’lgan odam butun Rusni ko’rgandek bo’ladi”).

Bundan tashqari, geografik joylashuv ham mentalitetga ta’sir o’tkazadi. Ma’lumki, Rossiyaning katta qismini o’rmonlar egallaydi, shu sababli, maqollarda “o’rmon” va unda yashovchi yovvoyi hayvonlar, ayniqsa, “bo’ri” hamda “ovchi” tasvirlari kattagina o’rin egallaydi. Misol uchun:

Счастье — что волк: обманет да в лес уйдёт (“omad – bo’ri, aldaydi va o’rmonga ketib qoladi”).

Волков бояться — в лес не ходить (“bo’ridan qo’rqqan o’rmonga bormas”).

На ловца (охотника) и зверь бежит (“ovchini ko’rsa hayvon ham qochadi”).

Не выучит школа, а выучит охота (“maktab o’rgatmaydi, balki ov o’rgatadi”).

Shu bilan birga, bu mamalakatda daryolar va dengizlar nihoyatda ko’p. Shu bois, “baliq”, “dendizchi” obrazlari tasvirlangan maqollarni kuzatish mumkin:

Зачужимстолом смелость нужна, как нал одке моряку (“dengizchiga qayiqda botirlik kerak bo’lganidek, bironing joyida ham botirlik darkor”).

Непойманная рыба всегда большой кажется (“ovlanmagan baliq kattaroq tuyuladi”).



Море — наше поле: даптирыбу, даетихле б (“dengiz bizning zaminimiz: ham baliq beradi, ham non”).

Maqollardagi milliy koloritni ta’minlaydigan yana bir obraz – bu o’sha xalq taomlaridir. Isbot uchun:

Fransuz tilida:

Chaque cuisinier fait l'éloge de son propre bouillon (“har bir oshpaz o’z sho’rvasini maqtaydi”).

Trop de cuisiniers gâtent la sauce (“oshpaz ko’p bo’lsa, sho’rva buziladi”).

O’zbek tilida:

Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.

Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye.

Rustilida:

Щи и каша — пища наша (“shi va kasha – bizning taom”).

Кисель зубов не портит (“kisel tishlarga zarar emas”).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o’sha xalqning barcha o’y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe’l – atvori va e’tiqodi aks etadi. Har bir millat o’ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o’xshash bo’lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo’yoqdorlikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – 09.04.2007.
2. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 222 с.
3. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – М., 1995.
4. Колесов В.В. Ментальные характеристики русского слова в языке и философской интуиции // Язык и этнический менталитет / Отв.ред. З.К.Тарланов. – Петрозаводск, 1995.
5. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985.
6. O’zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq”, 2012. – 512 b.
7. [В. И. Зимин](#) Пословицы и поговорки русского народа: большой объяснительный словарь. – М.: “Феникс”, 2006. – 614 b.
8. Raufov, M. M. (2021). Elementary transformations in simultaneous translation. Academic research in educational sciences, 2(1).
9. Abdusamadov, Z. N. O. (2021). THE CLASSIFICATION AND FUNCTIONS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH LANGUAGE. Academic research in educational sciences, 2(3).
10. Mustafakulovich, R. M., & Nurmatovich, A. Z. (2021). Methods of Transmitting Phraseological Units in Simultaneous Translation. Procedia of Social Sciences and Humanities, 2, 10.21070/pssh.v2i.69.
11. Рўзибаева, Н. Р. (2021, June). ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА МАҚОЛ ВА МАТАЛЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. In *Conferences*.



12. Рузибаева, Н. Р. (2021). ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТИТЕЗЫ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-2).